

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ISANOVA ZEBUNISO SHAVKATOVNA

**FILOLOGIYA YO‘NALISHI TALABALARINING PLURILINGVAL
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Isanova Zebuniso Shavkatovna

Filologiya yo‘nalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini
takomillashtirish.....3

Исанова Зебунисо Шавкатовна

Совершенствование плюрилингвальной компетенции студентов
филологического направления.....27

Isanova Zebuniso Shavkatovna

Improving the Plurilingual Competence of Students of Philological
Direction.....55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....60

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI

ISANOVA ZEBUNISO SHAVKATOVNA

**FILOLOGIYA YO‘NALISHI TALABALARINING PLURILINGVAL
KOMPETENSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.Phd/Ped4482 bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.uzswlu.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kulmatov Baxram Gulyamovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sabirova Gulnoza Sadikovna

pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent

Tajibayev G'ayratjon Shovdorovich

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/07.06.2024.Ped.27.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «31» iyul soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92. E-mail: uzswlu_info@mail.ru).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (188 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 21-A uy. Tel: (99871) 230-12-91. Faks: (99871) 230-12-92.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «15» iyul kuni tarqatildi.
(2025-yil «15» iyul dagi 8 - raqamli reyestr bayonnomasi).



L.T. Axmedova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, ped.f.d., professor

A.B. Raxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, ped.f.d. (DSc), dotsent

K.Sh. Muradkasimova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, ped.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish jarayonlari Yevropa Kengashining til xilma-xilligini o'zaro tushunish vositasiga aylantirish talabini e'lon qilishi, CEFR (Common European Framework References)ga plurilingval kompetensiyani kiritilishi bilan ushbu kompetensiyani takomillashtirish zaruratini keltirib chiqardi. Ko'p tillilik nafaqat lingvistik mahorat, balki madaniy, ijtimoiy va professional resurs sifatida qaralib, Fransiya, AQSh, Kanada, Rossiya, Xitoy kabi rivojlangan davlatlarda xorijiy tillarni o'qitishda plurilingval kompetensiyani takomillashtirish ahamiyati ortib borishi, xorijiy til o'rganuvchilarining ijtimoiy lingvistik, madaniy bilim, ko'nikma va malakalarni o'z ichiga olgan plurilingval kompetensiyani takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb qilmoqda.

Dunyo mamlakatlarining ta'lim tizimlarida Yevropa Kengashining yondashuvi plurilingvalizm kabi ta'limning muhim tamoyillari sifatida tan olinmoqda. Dunyo bo'ylab tadqiqotchilarni birlashtiradigan tadqiqot loyihalari va nashrlarini ilgari suruvchi Yevropa zamonaviy tillar markazi (The European Centre for Modern Languages (ECML)) plurilingval, madaniy va kognitiv kompetensiyalar kabi sohalarini o'rganishga qaratilgan ilmiy uyushmalar filologiya yo'nalishi talabalarining ingliz tilida plurilingval kompetensiyasini takomillashtirish funksiyalarini aniqlashtirish va ushbu kompetensiyani takomillashtirish texnologiyalari bo'yicha amaliy loyihalarni tatbiq etishga doir ilmiy tadqiqotlarni olib borishda dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida chet tillarni o'qitish bo'yicha milliy standartlar Yevropa Kengashi va jahon ta'lim standartlariga asoslangan. Yangi tendensiyalar oliy ta'lim tizimida filologiya yo'nalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirish nuqtayi nazaridan kasbiy tayyorlashga qaratilgan konseptual tizimini yangilashni talab qiladi. Ta'limning barcha bosqichlari pedagoglari, magistratura va doktoranturaga o'qishga kiruvchilar hamda davlat organlarining xodimlari uchun chet tillarini tegishli darajada bilishni tasdiqlovchi sertifikatga ega bo'lish talabi o'rnatilmoqda¹. Natijada, filologiya yo'nalishi talabalarining ingliz tilida plurilingval kompetensiyasini takomillashtirish xorijiy tillarni o'zlashtirishda madaniy xabardorlik, ya'ni o'rganilayotgan tillar, mamlakatlar, urf-odatlar, milliy mentalitetlarni bilish bilan uzviy bog'liq.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

¹ O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son Qarori. 2021-yil 19-may.

oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" Qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish masalalari bo'yicha M.Djusupov, T.K.Sattorov, D.U.Xashimova, G.X.Bakiyeva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, D.R.Djumanova, A.B.Raxmonovlar²; ingliz tilini o'qitish bo'yicha X.A.Mamatqulov, F.M.Rashidova, I.M.Tuxtasinov, F.X.Ibragimova, B.G.Kulmatov, M.X.Gulyamova, F.S.Azizova, D.A.Tadjibaeva, B.R.Samatova, K.Sh.Muradkasimova, Sh.M.Ismatova³; ko'p tillilik

² Джусупов М.Д. Обучение русскому произношению студентов-казахов при изучении курса фонетики современного русского языка: Дисканд. пед. наук – Т.: 1983. – 229 с.; Sattarov T.K. Mutaxassislik bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda bo'lajak chet tili muallimining kasbiy uslubiy malakalarini shakllantirish (ingliz tili materialida): Diss. ... ped.f.d. – T.: 2000. – 373 b.; Xashimova D.U. Лингводидактические основы изучения лакун в контексте современного функционирования русского языка и межкультурных взаимодействий: Дис.док.пед. наук. – Т.: 2007. – 209 с.; Бакиева Г.Х. Узбекский язык для стран СНГ. – М.: 2012. – 120 с.; Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов (на материале художественных текстов): Дисс. д.наук. – Т., 2012. – 320 с.; Jalolov J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. – B.430.; Джуманова Д.Р. Фонологическая модель слова в условиях языкового контактирования: Дис. д-ра. фил.наук. – Т.: 2016. – 266 с.; Рахмонов А.Б. Формирование профессиональной компетенции будущих учителей русского языка в самообразовательной деятельности: Автореферат дис... д-ра пед.наук. – Ташкент, 2022. – 82 с.

³ Mamatqulov X.A. Pedagoglarda xorijiy tillar bo'yicha kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning axborot-metodik ta'minotini takomillashtirish. Fals. ped.fan.dokt. ... dis. – Toshkent: O'zDJTU, 2017. – 143 b.; Рашидова Ф. М. Совершенствование концептуально-методических основ внедрения CEFR в систему непрерывного образования Узбекистана (на примере английского языка). Пед. фан. фал. док. Дис...автореф. – Тошкент, 2017. – 309 с.; Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish: Dis...ped.f.d. –Toshkent, 2018. – 203 b.; Ибрагимова Ф.Х. Совершенствование профессиональной компетенции будущих учителей английского языка через формирование интереса к культуре Англии: Дис...докт.пед. наук. – Ташкент, 2018. – 133 с.; Kulmatov B.G. Ingliz tilini innovatsion texnologiyalar yordamida o'qitishda CEFR mezonlaridan foydalanoishning nazariy asoslarini takomillashtirish. Ped fan.fal.dok.diss.avtoref. – Toshkent, 2018. – 210 b.; Gulyamova M.X. Ingliz tilini o'qitishda talabalar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv: Ped. fan. fal. dok. diss. ... avtoref. – Toshkent, 2019. – 262 b.; Azizova F.S. Oliy ta'lim muassasalari talabalariga ingliz tili frazeologizmlarini o'rgatishning lingvomadaniy xususiyatlari: Ped. fan. fal. dok. Diss...avtoref. – Toshkent, 2019. – 284 b.; Tadjibayeva D.A. Kichik yoshdagi bolalarning chet tili kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish (nemis tili misolida): Ped. fan. fal. dok. diss. ... avtoref. – Toshkent, 2020.; Samatova B.R. Ingliz tilini o'qitishda nofilologik yo'nalish talabalarining motivatsiyasi (yurisprudensiya yo'nalishi misolida): Ped. fan. fal. dok. diss.avtoref. – Toshkent, 2020. – 181 b.; Muradkasimova K.Sh. Bo'lajak mutaxassislarining baholash kompetensiyasini takomillashtirish konsepsiyasi: ped.fan.dokt.ilmiy dar.uchun diss. – T.: 2022. – 200 b.; Ismatova Sh.M. Ingliz tilini o'qitishda talabalarining bilim, ko'nikma va malakalarini kredit-modul tizimida baholash texnologiyasi. – Toshkent, 2022. – 203 b.

tushunchasini tadqiqot obyekti sifatida M.Djusupov, G.Maxkamova, V.I.Normuratovalarning ishlarida ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan⁴.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlarida L.O.Sherba, N.V.Barishnikov, M.A.Bodoni, N.V.Yevdokimova, Y.M.Vereshagin, Y.A.Shostak ko'p tilli kompetensiyani shakllantirishga oid ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishgan⁵.

Xorijlik olimlar ko'p tillilik, plurilingvizm va plurilingval kompetensiya bo'yicha E.Haugen, T.Skuttnab-Kangas, P.Herdina, U.Jessner, J.Cenoz, B.Hufeisen, V.Cook, Diamond, D.Coste, D.Moore, G.Zarate, E.Piccardo, G.Prasad, B.Jean-Claude, A.Galante, S.Marshallar tadqiqot olib borishgan⁶.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq I-204-4-5 raqamli "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar o'rtasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot, ilmiy ijodiy ishlar ilmiy loyihasining "Filologiya yo'nalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlar rejasi asosida bajarilgan.

⁴ Джусупов М. Межязыковое и межкультурное контактирование: понятие, слово, психообраз, интерференций. Филологические науки. Научные доклады высшей школы, (5), 2016. – С. 22-33.; Джусупов М. Звуковые системы русского и казахского языков. Слог. Интерференций. Обучение произношению, Ташкент 1991. – С. 147-175.; Махкамova Г. Вопросы билингвизма и мультилингвизма в подготовке будущих специалистов английского языка. Иностранные языки в Узбекистане. 2017, №. 3. – С. 94-100.; Нормуратова В.И. Новые возможности повышения качества обучения языкам. Иностранные языки в Узбекистане. – 2020. – №. 5. – С. 118-126.; Ikramova S. R., Normuratova V. I. The role of plurilingual and pluricultural competencies in teaching foreign languages. Current research journal of philological sciences. – 2022. – Т. 3. №. 05. – Р. 42-45.

⁵ Шерба Л.В. О понятии смешения языков. Избранные работы по языкознанию и фонетике. – Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1958, Т.1. – С. 40–53.; Баришников Н. В., Бодони М. А. Дидактика многоязычия: теория и факты. Иностранные языки в школе. 2008. – №. 2. – С. 22-24.; Евдокимова Н. В. Концепция формирования многоязычной компетенции студентов неязыковых специальностей. Монография. Ростов-на-Дону: РИЦ РГЭУ (РИНХ), 2011. – 342 с.; Верешагин Е.М. Психологическая и методическая характеристика двуязычия (билингвизма). – Directmedia, 2014. – 164 с.; Шостак Е.А. Методика формирования многоязычной компетенции у студентов многопрофильного вуза. Автореферат дис... На соискую уч. степени канд. пед. Наук, 2021. – 22 с.

⁶ Haugen E. Bilingualism in the Americas: A bibliography and research guide. Montgomery: University of Alabama Press, 1956. – P. 9.; Skuttnab-Kangas T. Bilingualism or not - the education of minorities Multilingual Matters, 1984. – P. 81.; McArthur T. The Oxford Companion to the English Language. Oxford University Press, 1992. – P. 673.; Herdina P., Jessner U. A dynamic model of multilingualism: Changing the psycholinguistic perspective. – 2002. – 196 p.; Cenoz J., Hufeisen B., Jessner U. Why investigate the multilingual lexicon? The multilingual lexicon. – Dordrecht: Springer Netherlands, 2003. – P. 1-9.; Cook V. J. Effects of the L2 on the L1. Clevedon: Multilingual Matters. – 2003. – 268 p.; Diamond J. The benefits of multilingualism. Science. 2010. – Т. 330. – №. 6002. – P. 332-333.; Coste D., Moore D., Zarate G. Plurilingual and pluricultural competence. Language Policy Division. Strasbourg: Council of Europe. – 2009. – 49 p.; Piccardo E. Plurilingualism and curriculum design: Toward a synergic vision. TESOL Quarterly, 47, 2013. – P. 600-614.; Prasad G. Portraits of plurilingualism in a French international school in Toronto: Exploring the role of visual methods to access students' representations of their linguistically diverse identities. Canadian Journal of Applied Linguistics, 17(1), 2014. – P. 52.; Jean-Claude B. Guide for the development and implementation of curricula for plurilingual and intercultural education. Council of Europe, 2016. – 170 p.; Galante A. Plurilingual or Monolingual? A Mixed Methods Study Investigating Plurilingual Instruction in an EAP Program at a Canadian University Angelica Galante Doctor of Philosophy Department of Curriculum, Teaching and Learning University of Toronto. – Canada, 2018. – 306 p.; Marshall S., Moore D. Plurilingualism amid the panoply of lingualisms: addressing critiques and misconceptions in education. International Journal of Multilingualism, 15(1), 2018. – P. 19-34.

Tadqiqotning maqsadi filologiya yoʻnalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini vizual tasvirlash va strukturaga solish texnologiyasi asosida takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy asoslariga qaratilgan adabiyotlarni tahlil qilish asosida plurilingval kompetensiyani takomillashtirishning oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganish;

oʻquv jarayonida mavjud oʻquv dasturlari va darsliklarni tahlil qilish hamda xorijiy til (ingliz)ni oʻzlashtirishda filologiya yoʻnalishi talabalarining plurilingval repertuari taʼsirini empirik tadqiqotlar asosida aniqlash;

ingliz tilini oʻqitish jarayonida talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishda vujudga keladigan qiyinchiliklarni aniqlash hamda mashqlar tizimini ishlab chiqish;

talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirish modelini ishlab chiqish hamda pedagogik tajriba-sinov ishlarini tashkil etish va oʻtkazish, samaradorlik koʻrsatkichini belgilash.

Tadqiqotning obyekti sifatida filologiya yoʻnalishi talabalarining ingliz tilida plurilingval kompetensiyasini takomillashtirish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini filologiya yoʻnalishi talabalarining ingliz tilida plurilingval kompetensiyasini takomillashtirish mazmuni, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda oʻrganishni taʼminlashga qaratilgan metodlar majmui qoʻllanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash), diagnostik (soʻrovnomalar, test oʻtkazish, kuzatish), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (maʼlumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va b.).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

filologiya yoʻnalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishning didaktik va metodik taʼminoti plurilingval kompetensiya komponentlari, kommunikativ kompetensiya subkomponentlari bilan gorizontal integratsiyasi samarasi, metalingvistik malakani rivojlantirish, transversal kompetensiya (Transversal Competences)lar va madaniy kontekstga ustuvorlik berish asosida CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standarti mazmuniga muvofiq ishlab chiqilgan;

boʻlajak filolog talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan toʻrt bosqichli qiyosiy-informatsion, plurilingval -operatsion, kommunikativ-motivatsion va madaniy-pragmatik mashqlarni taʼlimiy maqsadlar, metakognitiv jarayonlar kabi omillarga muvofiqlashtirish va kognitiv yuklamani kamaytirish (Cognitive Load Theory) tamoyili asosida vizual tasvirlash va strukturaga solish texnologiyasi (VTSST)ning samaradorligi dalillangan;

filologiya yoʻnalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishning toʻrt blokli maxsus modeli taʼlim texnologiyasi va tillararo resurslardan samarali foydalanish bilan funksional bogʻlanish hamda tizimlilik,

madaniyatlararo sezgirlik va o‘z-o‘zini baholash tamoyillari asosida tillararo ta’sir (Cross-linguistic Influence(CLI))ga ustunlik berish asosida ishlab chiqilgan;

talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishda plurilingval va plurimadaniy repertuarga asoslanish, plurilingval tushunish, metalingvistik hamda metakognitiv komponentlar qatoriga adaptiv va affektiv komponentlarni plurilingval kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida kiritishning samaradorligi CEFR tavsiflovchilari hamda OTM baholash tizimini o‘zaro uzviylashtirish asosida takomillashtirilgan baholash mezonini qo‘llash orqali isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

filologiya yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi, kommunikativ leksika fanida qo‘llanilishga qaratilgan “Plurilingval kompetensiyani takomillashtirishga mo‘ljallangan mashqlar tizimi” va “Plurilingval kompetensiyani baholash uchun testlar banki” yaratilgan;

filologiya yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi “Plurilingval kompetensiyani takomillashtirish modeli” CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) tamoyillari va subkompetensiyalariga tayangan holda ishlab chiqilgan;

filologiya yo‘nalishining Kommunikativ leksika fani tahlil qilinib, ushbu fan doirasida talabalarining plurilingval kompetensiyani takomillashtirishga mo‘ljallangan dars ishlanmalari “Rol o‘ynash jadvali”, “Hayot chizig‘i”, “Madaniyat sxemasi”, “T-jadval”, “Toifalash jadvali”, “Gul yaprog‘i”, “Tarmoq diagrammalari” kabi grafik tasvirlash vositalari asosida ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi metodikaning asosiy tamoyillariga asoslanganligi, unda qo‘llangan yondashuv, usul va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, muammo yuzasidan respublikamiz va xorijiy olimlarning fikr-mulohaza hamda g‘oyalariga tayanilgani, pedagogik tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligi matematik-statistik metodlari vositasida asoslangani, tadqiqot maqsad va vazifalarining adekvatligi, xulosa, taklif hamda tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani va olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ko‘p tillilik – fanlarning ilmiy tadqiqot muammosi sifatida, plurilingval kompetensiya va uning mazmun-mohiyati, plurilingval kompetensiyani takomillashtirishning xususiyatlarini aniqlashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta’limda darslik, o‘quv qo‘llanma, o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda filologiya yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida plurilingval kompetensiyasini takomillashtirish modeli, metodikasi, mashqlar tizimi, testlar banki va dars ishlanmalardan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Filologiya yo‘nalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

filologiya yo‘nalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishning didaktik va metodik ta’minoti plurilingval kompetensiya komponentlari, kommunikativ kompetensiya subkomponentlari bilan gorizont

integratsiyasi samarasi, metalingvistik malakani rivojlantirish, transversal kompetensiya (Transversal Competences)lar va madaniy kontekstga ustuvorlik berish asosida CEFR (Common European Framework of Reference for Languages) standarti mazmuniga muvofiq ishlab chiqilganiga oid xulosa va takliflardan AL-412104512-raqamli “O‘zbekistonning geografik obyektlari uchun ko‘p tildagi elektron lug‘at yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihada keng foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2023-yil 14-sentyabrdagi 04/4006-son ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya ilmiy natijalari loyiha doirasida elektron lug‘at resurslarini yaratishda foydalanilgan;

bo‘lajak filolog talabalarning plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan to‘rt bosqichli qiyosiy-informatsion, plurilingval-operatsion, kommunikativ-motivatsion va madaniy-pragmatik mashqlarni ta’limiy maqsadlar, metakognitiv jarayonlar kabi omillarga muvofiqlashtirish va kognitiv yuklamani kamaytirish (Cognitive Load Theory) tamoyili asosida vizual tasvirlash va strukturaga solish texnologiyasi (VTSST)ning samaradorligi dalillangan taklif va tavsiyalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida AQSh Davlat departamenti va O‘zbekistondagi AQSh elchixonasi bilan hamkorlikda 2022-2024 yillarda amalga oshirilgan SUZ 280021GR3106 raqamli “The English Access Microscholarship Program” “O‘zbekistonda oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va kompyuter savodxonligini oshirish” mavzusidagi loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2024-yil 11-iyuldagi 01/407-son ma’lumotnomasi). Natijada, xulosa va tavsiyalar loyiha doirasida elektron resurslar, nazariy va amaliy materiallarni tayyorlashda muhim manba bo‘lib xizmat qilgan;

filologiya yo‘nalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishning to‘rt blokli maxsus modeli ta’lim texnologiyasi va tillararo resurslardan samarali foydalanish bilan funksional bog‘lanish hamda tizimlilik, madaniyatlararo sezgirlik va o‘z-o‘zini baholash tamoyillari asosida tillararo ta’sir(Cross-linguistic Influence(CLI))ga ustunlik berish asosida ishlab chiqilgani xususidagi takliflardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida Yevropa ittifoqi tomonidan (Gumboldt universiteti, Germaniya.) 2022-2025-yillarda “Erasmus+ International KA107 Credit mobility Key action 1- Mobility for learners and staff – Higher education student and staff mobility” mavzusidagi innovatsion loyihada keng foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 5-fevraldagi 04/1-456-son ma’lumotnomasi). Natijada, tadqiqot ishi materiallaridan, loyiha doirasida qo‘llanma va ishlanmalar ishlab chiqishda foydalanilgan;

talabalarning plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishda plurilingval va plurimadaniy repertuarga asoslanish, plurilingval tushunish, metalingvistik hamda metakognitiv komponentlar qatoriga adaptiv va affektiv komponentlarni plurilingval kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida kiritishning samaradorligi CEFR tavsiflovchilari hamda OTM baholash tizimini o‘zaro uzviylashtirish asosida takomillashtirilgan baholash mezonini qo‘llash orqali isbotlangan xulosa va takliflardan FZ-2020010829-raqamli “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari” mavzusidagi amaliy

loyihada keng foydalanilgan (Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetining 2024-yil 4-apreldagi 04/11-2602-son ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya ilmiy natijalari ushbu loyiha mexanizmlarini ishlab chiqishda keng foydalanilib, talaba yoshlarning amaliy ko‘nikmalarini shakllanishiga xizmat qilgan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, shundan 5 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, asosiy matn 157 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot usullari aniqlangan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Filologiya yo‘nalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishning nazariy talqini”** deb nomlangan birinchi bobida ko‘p tillilik – fanlarning ilmiy tadqiqot muammosi sifatida, plurilingval kompetensiya va uning mazmun-mohiyati hamda plurilingval kompetensiyani takomillashtirish xususiyatlari yoritilgan.

Ko‘p tillilik bugungi globallashtirish dunyoda muhim tushunchalardan biriga aylangan. Xorijiy tilni o‘rganish jarayonida ko‘p tillilikka e’tibor qaratish nafaqat yangi tilni bilish, balki til o‘rganayotgan shaxsning dunyoqarashini kengaytirish, madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish va boshqa xalqlarning qadriyatlariga hurmat bilan yondashishga o‘rgatadi.

Ushbu tushunchaga turli lug‘atlarda turlicha ta’rif beriladi: “Ko‘p tillilik deganda (polilingvizm, multilingvizm) – ma’lum bir ijtimoiy jamiyatda bir necha tillardan foydalanish tushuniladi. Ko‘p tillilikning milliy va individual (shaxs tomonidan chet tillaridan farqli ravishda har kuni kamida uch tilda teng ravishda ravon foydalanish) kabi ikki turi mavjud. Birinchi turda ko‘p millatli hududda ikki yoki undan ortiq tilning amal qilishi tushuniladi. Ko‘p tillilikda turli til shakllari (adabiy tillar, shevalar, ijtimoiy va kasbiy jargonlar va boshqalar) odatda ma’lum bir iyerarxik munosabatda bo‘ladi. Ikkinchi turida esa ikki yoki undan ortiq tillarni shaxs ehtiyojlariga muvofiq bilishi va foydalanishi hisoblanadi”⁷.

⁷ Словарь социолингвистических терминов. – М., 2006. – 312 с. Ответственный редактор: доктор филологических наук В.Ю. Михальченко Авторы: к.ф.н. В.А. Кожемякина, Н.Г. Колесник, д.ф.н. Т.Б.

Olimlar P.Herdina va U.Jessner esa ushbu tushunchaga quyidagicha ta'rif beradi: "Ko'p tillilik, ikki tillilik va monolingvizm bular turli xil hodisadir, lekin asosan ikkinchi tildan keyin o'rganilgan tillarga ta'sir qiladi. Shu ma'noda ikki tillilik ko'p tillilik bilan birlashtiriladi"⁸. Shuni alohida ta'kidlash joizki, olimlar ko'p tillilik tushunchasini ikki tillilik hamda monolingvizmdan farqlanishini izohlab o'tgan. Ammo olima I.N.Jukovaning nazariy qarashlarida esa ko'p tillilik-bu multilingvizm/bilingvizmdir deb ta'riflanadi. Bir xil ijtimoiy hamjamiyat ichida bir nechta tillardan foydalanish g'oyasi ilgari surilib, u ikki va undan ortiq tilni bilishni ko'p tillilik deb ifoda etadi⁹.

Mamlakatimiz olimi M.Djusupovning ta'rifiga ko'ra esa "Ikki tillilik turlarining barcha ta'riflari va tasniflari, birinchi navbatda, ikkinchi tilni bilish darajasini belgilaydigan poydevorga, ko'p tillilik bilan esa uchinchi, to'rtinchi va boshqa tillarga asoslanadi. Ko'p tillilik va madaniyatlararo aloqa statik va dinamik xususiyatlar asosida shakllanadi va ishlaydi"¹⁰.

Biz yuqorida berib o'tilgan ta'rif va tahlillarga asoslangan holda ko'p tillilik tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifini taklif etamiz: *"ko'p tillilik – bu bir shaxsning ikki yoki undan ortiq tillarda samarali muloqot qilish, til mexanizmlarini tushunish qobiliyati tushuniladi. Bu nafaqat til bilimlari yig'indisi, balki murakkab kompetensiya va muloqotda o'zaro aloqalarni yaratish qobiliyatidir"*.

Ko'p tillilik va plurilingval kompetensiya o'rtasidagi bog'liqlik shundan iboratki, plurilingval kompetensiya ko'p tillilikni amalda samarali tarzda qo'llash imkonini beradi. Ko'p tillilik shaxsning bir nechta tilni bilishi natijasi bo'lsa, plurilingval kompetensiya shu bilimni muloqotda muvofiqlashtirgan holda va turli madaniyatlararo vaziyatlarga moslashib qo'llash sanaladi.

Plurilingval kompetensiyani nazariy asoslashda ikki asosiy qarashga duch kelamiz, birinchi qarash bu kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning barcha subkompetensiyalari bilan o'zaro bog'liq degan g'oyani ilgari surib, kommunikativ kompetensiya elementi sifatida e'tirof etishdir (CEFR, B.North V.I.Normuratova, Coste, Moore va Zarate). Ikkinchi qarashga ko'ra esa plurilingval kompetensiyani shunchaki til bilimiga ega bo'lish emas, balki madaniy farqlarni tushunish va ularga moslasha olish qobiliyati sifatida qaralib, madaniyatlararo kompetensiyaning elementi degan g'oyani ilgari suradi (M.Byram, C.Kramersch, M.J.Bennett). V.I.Normuratovanning ta'kidlashicha, plurilingval kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiga kiruvchi subkompetensiya hisoblanadi.

Bizningcha esa, yuqoridagi qarashlardan birinchisi asosli bo'lib, plurilingval kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning barcha subkompetensiyalari bilan o'zaro bog'liqdir.

Крючкова, к.ф.н. О.С. Парфенова, к.ф.н. Ю.В. Трушкова, при участии к.ф.н. А.Н. Биткеевой и к.ф.н. М.А. Горячевой.


⁸ Herdina P., Jessner U. A dynamic model of multilingualism: Changing the psycholinguistic perspective. – 2002.

⁹ Жукова И.Н., Лебедько М.Г., Прошина З.Г., Юзефович Н.Г. Словарь терминов межкультурной коммуникации. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 53.

¹⁰ Джусупов М. Межязыковое и межкультурное контактирование: понятие, слово, психообраз, интерференция. Филологические науки НДВШ. – М., 2016. – С. 22-34.

CEFRga ko'ra plurilingval kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning tarkibiga kiruvchi lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalarga tayanadi. Bu ko'p tillarning tuzilishi va tashkil etilishining umumiy va o'ziga xos xususiy jihatlarini tushunishni shakllantiradi. Shuningdek, ushbu kompetensiya ham plurilingval repertuarga asoslanish, plurilingval tushunish va plurimadaniy (pluricultural) repertuarga asoslanishga bo'linadi. Boshqacha qilib aytganda plurilingval kompetensiya tarkibini gorizontaal va vertikal ko'rsatish mumkin, bunda gorizontaal qismida plurilingval kompetensiya tayanadigan kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari bo'lgan lingvistik, sotsiolingvistik, pragmatik va strategik kompetensiyalar bo'lsa, vertikal qismiga plurilingval repertuarga asoslanish, plurilingval tushunish va plurimadaniy repertuarga asoslanishni kiritishimiz mumkin.

Biz CEFRdagi ushbu qarashga asoslanib, plurilingval kompetensiyaning takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi rasmda aks ettirdik (1-rasm):



1-rasm. Plurilingval kompetensiyaning takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari


Plurilingval kompetensiyaga berilgan ta'riflarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, Yevropa kengashi (Council of Europe) quyidagicha ta'rif beradi: "plurilingval

kompetensiya – bu tillardan muloqot maqsadlarida foydalanish va madaniyatlararo o‘zaro ta’sirda ishtirok etish qobiliyati, bunda ijtimoiy agent sifatida qaraladigan shaxs turli darajadagi, bir nechta tillarni bilishi va bir nechta madaniyatlar tajribasiga ega. Bu alohida kompetensiyalarning superpozitsiyasi yoki yonma-yon qo‘shilishi sifatida emas, balki foydalanuvchi jalb qilishi mumkin bo‘lgan murakkab yoki hatto kompozitsion kompetensiyaning mavjudligi sifatida qaraladi”¹¹.

Olim J.Beakko ta’rifiga ko‘ra esa: “plurilingval kompetensiya til va madaniy resurslarning ko‘p tilli repertuaridan muloqot ehtiyojlarini qondirish yoki boshqa kelib chiqishi va kontekstdagi odamlar bilan muloqot qilish va shu bilan birga repertuarni boyitish qobiliyati sifatida aniqlanadi. Repertuar til o‘rganuvchilar o‘zlari bilgan yoki o‘rgangan barcha tillarda egallagan hamda shu tillar bilan bog‘liq madaniyatlarga tegishli manbalardan iborat”.

L.A.Chubarovaga ko‘ra plurilingval kompetensiya quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi: u boshqa barcha kompetensiya turlariga qaraganda individual xarakterga ega va vaqtinchalik o‘zgarishlarga duchor bo‘ladi; xilma-xildir, chunki u ko‘p jihatlardan iborat; asimmetriya va beqarorlik bilan tavsiflanadi, chunki bir tilni bilish darajasi boshqa tilni bilish darajasidan sezilarli darajada farq qilishi mumkin¹².

Bizning ta’rifimizcha, *“plurilingval kompetensiya – bu shaxsning umumiy til tajribasi, madaniyatlararo tushunish qobiliyatiga tayangan holda shaxsni turli tillar orasida bog‘liqlikni o‘rnatish, ulardan samarali foydalanish, turli sohalar hamda vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiya lingvistik, madaniy, pragmatik, ijtimoiy bilimlarni va amaliy ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi”*. Ushbu kompetensiyaning komponentlari CEFR hamda olimlarning qarashlari asosida quyidagicha ifoda etildi (2-rasm):



2-rasm. Plurilingval kompetensiya komponentlari (CEFR, L.Vygotsky hamda J.Kummins)

¹¹ Council of Europe (CoE). Common European framework of reference for languages: Learning, teaching, assessment. CEFR – Companion volume, 2018.

¹² Чубарова Л. А. Особенности формирования плюрилингвистической компетенции студентов в процессе иноязычного образования в вузе. Плюрилингвизм и мультилингвизм: проблемы и стратегии развития: материалы международного научного семинара. – Тюмень, 2012. – С. 35.

Biz yuqorida ko‘rib o‘tgan komponentlar tarkibiga “*adaptiv komponent*” hamda “*affektiv komponent*”ni ham qo‘shishni taklif etdik. *Adaptiv komponent* - bu komponent talabalarning yangi madaniyat va til muhitiga moslashish qobiliyatini rivojlantiradi. Ularning turli madaniyat va til sharoitlarida tez o‘zgaruvchan muhitga moslashuvini qo‘llab-quvvatlaydi. *Affektiv komponent* esa talabalarning til o‘rganishga bo‘lgan munosabati va motivatsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, ko‘p tillilikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga yordam beradi. Bu komponent, ayniqsa, tilni o‘rganish jarayonida hissiy va ijtimoiy omillarni hisobga olish uchun muhimdir.

Plurilingval kompetensiyani takomillashtirish haqida gap borar ekan, yana bir muhim tushunchalardan biri transversal kompetensiya (Transversal competences)lar bo‘lib, hozirda ushbu kompetensiyani yigirma birinchi asr kompetensiyalari ham deb aytiladi. Ushbu kompetensiya Yevropa zamonaviy tillar markazi (European Centre for Modern Languages, 2021)da va boshqa ta‘lim hujjatlari (UNESCO, European Commission – Key Competences for Lifelong Learning (2018))da keltirib o‘tilgan. Transversal kompetensiya (ko‘ndalang kompetensiyalar, transversal malakalar)lar ma‘lum bir kasb, fan yoki vaziyat bilan cheklanmagan, balki turli sohalarda faoliyat turlarida va hayotiy vaziyatlarda qo‘llanilishi mumkin bilim va ko‘nikmalar majmuidir.

Plurilingval va plurimadaniy kompetensiyalarni takomillashtirishda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy ko‘nikmalar kabi transversal kompetensiyalarning ahamiyati katta hisoblanadi. Bunda plurilingval shaxs o‘z til tajribalarini tahlil qiladi, tillar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni baholaydi. Bu kabi transversal kompetensiyalar til o‘rganish strategiyalarini ongli ravishda tanlashga yordam beradi.

Dissertatsiyaning “**Filologiya yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida plurilingval kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi**” deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz tili fanlaridan o‘quv dasturlar va o‘quv adabiyotlari tahlili, filologiya yo‘nalishi talabalarining ingliz tilida plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishda mashqlar tizimi hamda talabalarning plurilingval kompetensiyani takomillashtirishda vizual tasvirlash va strukturaga solish texnologiyasidan foydalanish yoritilgan.

Tadqiqot ishing ushbu qismida, O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari, shuningdek YUNESKO (UNESCO) tomonidan joriy etilgan “Ta‘limning xalqaro standart klassifikatsiyasi” (TXSK 2011) va “TXSK: Ta‘lim va kasbiy tayyorlash sohalari”ga (TXSK-S 2013) muvofiq tarzda ishlab chiqilgan, Adliya vazirligi tomonidan 27.10.2021-yil 43-son bilan ro‘yxatga olingan, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining 19.10.2021-yil №35-2021 buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Oliy ta‘limning davlat ta‘lim standarti” da “Malaka talablari”, “o‘quv dasturlari”ni tuzishga qo‘yilgan talablar hamda bakalavriat bosqichi bitiruvchilaridan kutiladigan natijalar tahlil qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 17-avgustdagi

3-sonli yig'ilishi asosida tasdiqlangan "60230100 – Filologiya va tillarni o'qitish (Ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishining Malaka talablari" tahlil qilindi. Ushbu hujjatda filologiya va tillarni o'qitish (Ingliz tili) bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalarining kasbiy faoliyatlariga, kasbiy hamda umumiy kompetensiyasiga qo'yiladigan talablar, ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha yuklamalari hamda o'quv reja va fan dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar o'rganildi.

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Kengashining 2022-yil 26-maydagi yig'ilishida tasdiqlangan "*Kommunikativ leksika*" fanining o'quv dasturi tahlil qilindi (10-sonli bayonnoma). Ushbu fan uchun jami yuklama 180 soatni tashkil etib, shundan auditoriya mashg'ulotlari uchun 90 soat, mustaqil ta'lim uchun 90 soat ajratilgan. "*Kommunikativ leksika*" fanining o'quv dasturida "fanning mazmuni", "fanning tarkibi", "fanning o'qitish natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)", "kreditlarni olish uchun talablar" hamda "asosiy adabiyotlar" bo'limlari tahlil qilindi. O'quv dasturini tahlil qilishda *maqsadga muvofiqlik, mazmunning izchilligi va mantiqiyligi, kompetensiyalarga yo'naltirilganlik, moslashuvchanlik, baholash mezonlarining aniqligi, resurslar va materiallar mutanosibligi, amaliyotga yo'naltirilganlik* mezonlariga asoslanildi.

V.A.Buxbinderning mashqlar tizimiga muvofiq filologiya yo'nalishi talabalarining ingliz tilida plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishga mo'ljallangan 4 bosqichli: *qiyosiy-informatsion, plurilingval-operatsion, kommunikativ-motivatsion va madaniy-pragmatik* mashqlar tizimi taklif etildi.

Ushbu mashqlar tizimi A.Leontyev taklif etgan bir nechta tamoyillarga asoslanadi: *tizimlilik tamoyili, komplekslik (kompleks rivojlantirish) tamoyili; ijtimoiy-madaniy tamoyil; faollik va interaktivlik tamoyili; muvofiqlik (moslik) tamoyili; maqsadga yo'naltirilganlik tamoyili; efektivlik (o'z-o'zini baholash) tamoyili*. Biz taklif etgan mashqlar tizimida "*bosqichlilik mezon*" asos qilib olingan bo'lib, ushbu mashqlar tizimi to'rt bosqichda tashkil etilgan. Har bir bosqich keyingi bosqich uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali talabalar murakkab kompetensiyalarni o'zlashtiradilar va kompetensiya takomillashuviga erishiladi (1-jadval):

1-jadval.

Plurilingval kompetensiyani takomillashtirish mezonlari, bosqichlari hamda mashqlar tizimining o'zaro integratsiya jadvali

Bosqichlar	Mashqlar tizimi	Mezonlari	Izoh
Tayanch bosqichi (boshlang'ich)	Qiyosiy-informatsion mashqlar	Asosiy lingvistik qobiliyatlarni qo'llash; Leksik mahoratlar; Integratsiyalashgan lingvistik foydalanish.	Tillarning lingvistik xususiyatlari va leksik o'ziga xosliklar (internatsional so'zlar va false friends, cognates (chalg'ituvchi so'zlar)) o'zlashtiriladi.
Rivojlantirish bosqichi (o'rta)	Plurilingval-operatsion mashqlar	O'xshashliklarni anglash; Transferni amaliyotga qo'llash; Transfer samaradorligini oshirish.	Turli tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni tahlil qilib, ingliz tilidagi ibora, idiomalarni to'g'ri qo'llay boshlaydilar. Sotsiolingvistik va pragmatik jihatlar chuqurroq o'rganiladi.

Integratsiya bosqichi (ilg' or)	Kommunikativ-motivatsion mashqlar	Asosiy muloqot qobiliyatlari; Interaktiv muloqot; Turli til uslublarini anglash.	Turli murakkab nutq modellaridan foydalanadilar. Ingliz tilida turli madaniyatlar bilan bog'liq nutq uslublarini qo'llash va muloqotda sezgir bo'lishga o'rgatiladi. O'z-o'zini nazorat qilish va o'z o'qishini mustaqil boshqarish qobiliyati rivojlantiriladi.
Moslashuvchanlik bosqichi (yuqori)	Madaniy-pragmatik mashqlar	Takomillashgan muloqot; Madaniyat va shaxsiy aloqa aspektlarini inobatga olish.	Turli muloqot kontekstlarida to'liq moslasha olishlari va madaniyatlararo sezgirlik yuqori darajaga yetadi.

Tadqiqot davomida filologiya yo'nalishi talabalarining plurilingval kompetensiyasini takomillashtirishga qaratilgan bir qancha yondashuvlar tahlil qilinib, plurilingval yondashuvning samaradorligi aniqlandi.

Plurilingval yondashuvning asosiy maqsadi – shaxsning bir nechta tillarni va madaniyatlarni bir-biri bilan bog'liq holda o'rganishini qo'llab-quvvatlashdir. Bu yondashuv talabalarga turli tillar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlarni anglash, madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish va ko'p tillilikni shaxsiy rivojlanishning muhim qismi sifatida qabul qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv Yevropa Kengashi tomonidan ishlab chiqilgan “Common European Framework of Reference for Languages” (CEFR) hujjatida keng yoritilgan.

Plurilingval kompetensiyani takomillashtirish jarayoni murakkab bo'lib, katta miqdordagi axborotni tahlil qilish va qabul qilish kabilarni o'z ichiga oladi. Bu jarayonni osonlashtirishda kognitiv yuklamani kamaytirish strategiyalari ahamiyatli. Kognitiv yuklama nazariyasi (Cognitive Load Theory) J. Sweller tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, insonning ishchi xotirasi (working memory) imkoniyatlari cheklanganligi va o'quv material yoki topshiriqlar ushbu xotira imkoniyatlaridan ortiqcha yuklansa, o'rganish samarasiz bo'lishini ta'kidlaydi.

Ushbu strategiyalarga quyidagilar kiradi:

1. O'quv materiallarini soddalashtirish, ya'ni juda murakkab ma'lumotlarni qismlarga bo'lish, oddiydan murakkabga o'tish;
2. Vizual qo'llab-quvvatlash: diagramma, sxema, rasmlar orqali tushuntirish;
3. Bosqichma-bosqich ko'rsatma berish;
4. Modallik effekti (Modality effect)dan foydalanish: masalan, bir vaqtning o'zida matnni ko'rsatish va audioni tinglash emas, balki biri orqali birini tushuntirish;
5. Avtomatlashtirishni rag'batlantirish: takrorlash va mashqlar bajarish.

Plurilingval kompetensiyani takomillashtirishga mo'ljallangan mashqlar minimal ortiqcha yuk, ko'proq foydali yuk (germane load) tamoyiliga tayanishi zarur.

Biz plurilingval kompetensiyani takomillashtirishda “vizual tasvirlash va strukturaga solish texnologiyasi (VTSST)” ya'ni “visual representation and structuring technologies (VRST)”ning qo'llanilishini tahlil qildik. Ushbu

texnologiya talabalarga murakkab tushunchalarni anglashda va ular o'rtasidagi aloqalarni tushunishda yordam beradigan ta'lim texnologiyasidir.

VTSSST quyidagi asosiy elementlarni o'z ichiga oladi: 1. **Vizual tasvirlash va strukturaga solish:** Ma'lumotni vizual shaklda ifodalash orqali materiallarni ko'rgazmali va tizimli ravishda taqdim etish. Bu jarayon *grafikalar, diagrammalar, xaritalar, mind mapping, jadvallar* kabi vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. 2. **Ko'p tilda tushunishni takomillashtirish:** VTSSST talabalarga bir nechta tilda keltirilgan materiallarni ko'rgazmali va strukturali o'rganishga yordam beradi, bu esa plurilingval kompetensiyani rivojlantiradi (2-jadval):

2-jadval.


Plurilingval kompetensiyani takomillashtirish strategiyalari va ularga mos keluvchi ta'lim texnologiyalari turlari

Plurilingval kompetensiyani takomillashtirish strategiyalari	Strategiyalar izohi	VTSSST tarkibi
Tilshunoslik sohasidagi bilimlarni rivojlantirib borish	Grammatika, fonetika, morfologiya, sintaksis kabi tilshunoslik sohalarini chuqur o'rganish til haqida umumiy bilimni kengaytiradi; Turli tillarni taqqoslab, ularning o'xshash va farqli jihatlarini aniqlash orqali tilshunoslik bilimlarini rivojlantirish;	Venn Diagrammasi: turli tillar grammatikasi, fonetika, leksika va sintaksis qoidalarini taqqoslash;
O'rganilayotgan tillarning ona tilida so'zlashuvchilari bilan muloqot qilish tajribasini takomillashtirish	Eshitib matnda to'g'ri keladigan iboralarni qo'yib tarjima qilish, dialog, samarali (gapirish va yozish) muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish;	Toifalash jadvali: turli tillarning lingvistik xususiyatlarini tasniflash va taqqoslash;
Til tajribasini tizimlashtirish	O'rganilgan yangi so'zlar, iboralar va grammatik qoidalarni yozib borish; Muntazam ravishda til o'rganish uchun darslar va mashqlarni rejalashtirib, tizimli yondashuvni ta'minlash;	T- jadval: o'rganilgan til materiallarini kategoriyalar bo'yicha ajratib, tizimlashtirish; BBB jadvali: leksikaga oid materiallarni (false friends (chalg'ituvchi so'zlar), ibora, idioma, konseptual metaforalar) o'rgatish;
Ijtimoiy hayotning turli sohalarida muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirish	Ijtimoiy tadbirlar va guruhlar qo'shilish: turli ijtimoiy tadbirlar va guruhlarda qatnashib, turli mavzularda muloqot qilish ko'nikmasini oshirish; Professional muloqot: kasbiy sohalarida tilni qo'llash orqali ijtimoiy va professional muloqot qobiliyatini rivojlantirish;	Rol o'ynash jadvali: turli ijtimoiy vaziyatlarda qo'llaniladigan muloqot strategiyalarini ko'rsatish;

Individual shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish	Har bir insonning o'ziga xos o'quv uslubi, yosh, muhit va yondashuvlarini hisobga olgan holda mos metodlarni tanlash;	Shaxsiy reja jadvali: til o'rganish maqsadlari va harakat rejasini individual ehtiyojlarga mos ravishda rejalashtirish; O'z-o'zini baholash jadvali: til o'rganish jarayonida o'z-o'zini baholash va o'zgarishlarni kuzatish;
Vositachilikni ta'minlash	Turli bo'shliqlar o'rtasida vositachilik ko'nikmalarini rivojlantirish; aloqa va o'zaro tushunishni kuchaytirish uchun tarjima, izohlash va tushuntirishdan foydalanishni rivojlantirish;	Muloqot sxemasi: vositachilik jarayonida qo'llaniladigan strategiyalarni ko'rsatish va ularni amaliyotda qo'llash; Ma'lumot oqimi diagrammasi: vositachilikda ma'lumotlarning qanday o'tishini ko'rsatish;
